

Olamning lisoniy manzarasini yaratish omillari

Rahmatova Shaxnoza Mirali qizi¹

Annotatsiya: Mazkur maqola zamonaviy tilshunoslikda eng ko‘p tadqiq etilayotgan tushunchalardan biri - olamning lisoniy manzarasi va uni yaratishga ta’sir qiluvchi lisoniy hamda nolisoniy omillar tahliliga bag‘ishlangan. Maqlada olamning lisoniy manzarasi haqida xorijiy hamda mahalliy olimlarning fikrlari, ularga muallifning munosabati, turli tillarda olamning lisoniy manzarasining jamiyat guruhlarida, insonlarda turlicha shakllanishi hamda ifodalanishi, uni xilma-xil madaniyatlar vakillari turlicha qabul qilishi, uning butun til nazariyasidagi o‘rni nazariy asoslar hamda amaliy misollar yordamida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: makon va zamon, etnik mentalitet, mental faoliyat, konnotatsiyalamoq, individual majoziy fikrlash, olamning konseptual manzarasi, milliy xarakter, borliqni anglamoq.

Kirish. “Til -bu insonning dunyo haqidagi bilimlari shakllanishi va mavjudligining eng muhim vositasidir. Inson o‘z faoliyati jarayonida bilish natijalarini ob’yektiv dunyoni aks ettirgan holda so‘z bilan belgilaydi. “Til shaklida qamrab olingan ushbu bilimlarning umumiyligi “tilning oraliq dunyosi”, “dunyoning lisoniy vakili”, “dunyoning lisoniy modeli”, “olamning lisoniy manzarasi” kabi turli xil ifodalar orqali berilgan”.

Olamning lisoniy manzarasi dunyoning maxsus tasvirlari (kimyoviy, fizik va hokazolar) bilan bir qatorda turmaydi, bu ularni oldinroq yaratadi va shakllantiradi, chunki inson ham umuminsoniy, ham milliy ijtimoiy-tarixiy tajribaga asoslangan til tufayli dunyoni va o‘zini anglay oladi. So’nggi yillarda tilshunoslikning turli sohalarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ularni turli yo’nalishlarga ajratishni taqozo qiladi. Jumladan, til, mentalitet, olamning lisoniy manzarasi, dunyoning etnik ko’rinishi va shu kabi izlanishlar ham turli-tuman yo’nalishlarda olib borilmoqda.

Asosiy qism. Dunyoda mavjud barcha tillar olamning lisoniy manzarasini ochib berishda turli-tuman lisoniy usullardan foydalanadi. Shu o‘rinda etnik mentalitet tushunchasi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ta’kidlash lozimki, mentalitet olam tasviri (olamning lisoniy manzarasi) g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lib, Sepir-Uorf gipotezasiga ko‘ra, tilda dunyoning “sodda” modeli gavdalananib, hozirgi kunda hamma e’tirof etadigan tushunchalar qatoriga kirdi. U o‘zida o‘z yaratuvchisi qirralarini mujassamlashtirgan, insoniyat dunyoqarash uslubini shakllantirgan va umuman dunyoning global obrazini ifoda etuvchi kategoriya hisoblanadi [Baxronova D. Toshkent, 2021].

Yu.D.Apresyan olam lisoniy manzarasining ilmiy tushunchaga qadar bo‘lgan xususiyatiga urg‘u berib, uni sodda tasvir deb atadi. Olamning lisoniy manzarasi, ko‘pincha, ularni buzib ko‘rsatish orqali voqelik haqidagi ob’yektiv bilimlarni to‘ldiradi”. O.V.Rtishyeva olaming lisoniy va ilmiy manzarasini taqqoslab, uning ikki xil tasviri o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlaydi: “Umumiy belgilar: makon va zamonning umumiyligi tuzilishi; bir xil moddiy ob’yektlar dunyosining aksi; sub’yekt va bilish ob’yekti o‘rtasida vositachi sifatida bir xil rol o‘ynaydi. O‘ziga xos xususiyatlar turli xil universalliklarni ham o‘z ichiga oladi, bu bilim tarixida olamning ilmiy mazarasini o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi. T.Y.Yakovleva olam lisoniy manzarasini tilda mavjud va shu tildan foydalanayotgan kishilar jamoasi uchun maxsus bo‘lgan borliqni qabul qilish sxemasi deb tushunishni taklif qiladi. M.Xalimova esa olam milliy lisoniy manzarasi tasvirida til va madaniyat mushtarakligi yuzasidan tadqiqot olib borib, olamning lisoniy manzarasi borliq haqidagi obyektiv bilimlarni to‘ldiradi, lisoniy shakllarda muhurlangan mazkur bilimlar majmuasi olamning lisoniy manzarasi deb nomlanadi deya ta’kiddaydi, olamning manzarasi tushunchasi insonning olam haqidagi tasavvurlarini o‘rganish asosida

¹ Kogon shahar 8-umumiyligi orta ta’lim mifik maktab o‘qituvchisi



yaratiladi, olam o‘zaro munosabatdagi inson va muhit bo‘lsa olam manzarasi inson va muhit haqidagi ma’lumotni qayta ishlash natijasidir degan fikrni ilgari suradi [Xalimova M., 2021: 888].

A.K.Kamenskiy olamning lisoniy manzarasini “mantiqiy (konseptual) va lisoniy (so‘zli) modeldan tashkil topgan mantiqiy-so‘zli hosila” sifatida umumiyl shaklda izohlagan. M. Xaydeggerning qayd qilishicha, “manzara” so‘zi deganda birinchi navbatda, biron narsaning tasviri haqida o‘ylaymiz, “olam manzarasi dunyoning tasvirini emas, balki olamni manzaradek tushunishni ifodalaydi”. Haqiqiy borliqni aks ettiruvchi olamning manzarasi va olamning lisoniy manzarasi o‘rtasida murakkab munosabatlar mavjud bo‘ladi. Olam manzarasi makon (yuqori-quyi, o‘ng-chap, Sharq-G‘arb, uzoq-yaqin), zamon (kun-tun, qish-yoz), miqdor va h.k. o‘lchovlar vositasida tasavvur etilishi mumkin. Uning shakllanishiga til, an’analar, tabiat va landshaft, ta’lim va tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Har bir tilda dunyoni tasavvur qilishning o‘ziga xos usullari mavjud. Dunyo tasavvuri bu dunyoning ko‘zgudagi aksi emas, balki uning insonlar ongidagi obrazli talqini ekanligi ma’lum. Shunga ko‘ra “Dunyo manzarasi” individual bo‘lishi ham mumkin. Shoir, rassom yoki haykaltarosh borliqni ifoda eta turib o‘zining badiiy dunyosini shaxsiy dunyoqarashiga ko‘ra aks ettiradi. Ichki dunyo tasavvuri tashqi dunyoga birining tili va boshqalarining barmoqlari orqali o‘tadi. Dunyoning lisoniy manzarasi tushunchasi orqali esa ma’lum bir tilda so‘zlashuvchi guruhning shu tildagi kishilar mentaliteti orqali dunyo tasavvurining tilda va til kategoriyalarda aks etishi tushuniladi va bunda tilning leksik tizimida borliq haqidagi bilimlar majmuasi ko‘zda utiladi [Сепир Е. М., 1993.].

Olamning lisoniy manzarasi borliq haqidagi obyektiv bilimlarni to’ldiradi. Lisoniy shakllarda muhrlangan mazkur bilimlar majmuasi olamning lisoniy manzarasi, deb nomlanadi. Olamning manzarasi (lisoniy ham) tushunchasi insonning olam haqidagi tasavvurlarini o‘rganish asosida yaratiladi. Olam o‘zaro munosabatdagi inson va muhit bo‘lsa, olam manzarasi inson va muhit haqidagi ma’lumotni qayta ishlash natijasidir. Agar olamning obrazi bo‘linmaydigan yaxlit butunlikni namoyon qilsa, olamning manzarasi dunyo haqidagi turli darajadagi bilimlar majmuyini va uning obyektlariga bo‘lgan munosabatni namoyon qiladi [Turdiyeva I. T., 2022.]. Olamning obrazini to’g’ridan-to’g’ri reflekslar vositasida anglab bo‘lmaydi, uni faqat o‘ziga xos obrazlarni o‘z boshidan kechirish orqaligina tushunish mumkin. Olam manzarasini odatdagagi bilish orqali anglab bo‘lmasa-da, uni verbal va obrazli aks ettirish, ifodalash mumkin.

Olamning lisoniy manzarasi muayyan til vakillarining til orqali o‘ziga xos olamini qurishlaridir. Til, madaniyat va borliqning o‘zaro munosabatlari quydagicha talqin qilinadi: olamning til orqali ifodalanishi shu tilda gapiruvchi xalqning jamoaviy ijod mahsulidir va har bir yangi avlod o‘z ona tili orqali madaniyatning to‘liq shaklini qabul qiladi. Aynan mana shu madaniyatda milliy xarakter, dunyoqarash, axloq kabi tushunchalar o‘z aksini topadi. Til, shunday qilib, olamni va madaniyatni o‘zida aks ettirib faol yaratuvchilik vazifasini bajaradi. Olam manzarasining milliy o‘ziga xosligini xalqning faqat ruhiy holatiga bog‘lash mumkin bo‘lmasada, ammo aslida olamni idrok qilishning butun jarayoniga ruhiy holatgina yangicha tus bera oladi. Chunki borliqni anglab olish – u haqidagi axborotlarni tushuncha va tasavvur shaklida intellektual tarzda qayta ishlashdir, olamni ruhiy nuqtai nazardan idrok qilishda esa dastlab tafakkur va milliy farq xususiyatlari namoyon bo‘lib, u o‘zida “tafakkur psixologiyasi va mental faoliyat” farqlarini aks ettiradi.

Olamning lisoniy manzarasi turfa ranglar, xususan, mifologemalar, obrazli metaforik so‘zlar, o‘xshatishlar, konnotativ so‘zlar, stereotiplar, ramzlar va h.k. vositasida yaratiladi [Завалишина Ю.Г., 1998.]. Har qanday til o‘zida mazkur til egasining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasini shakllantiradigan milliy, o‘ziga xos xususiyatlar tizimini mujassamlashtiradi. Masalan, ruslarda cho‘chqa a) ifloslik, b) nonko‘rlik, d) tarbiyasizlikni; inglizlarda pig ochofatni, o‘zbeklar, qirg‘izlar, qozoqlar va boshqa musulmon xalqlarida cho‘chqa sof diniy nuqtayi nazardan o‘ta haqoratni ifodalaydi; vyetnamlarda cho‘chqa ahmoqlik ramzi bo‘lib keladi. Demak, cho‘chqa so‘zi turli xalqlarda turlicha belgilarni konnotatsiyalaydi. Bu esa mazkur xalqlar olam manzarasining shakllanishidagi ularning o‘ziga xos, individual majoziy fikrlashini ko‘rsatadi [Лихачев Д.С., Т.1993.].



Olam manzarasining konseptual va lisoniy turlarini farqlash lozim. Olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasidan farqli o'laroq, bilish va ijtimoiy faoliyatlar natijalarini aks ettirib doimo o'zgarishda bo'ladi. Biroq olam lisoniy manzarasining ayrim qismlari insonlarning olam haqidagi qadimdan qolgan, eskicha tasavvurlarini uzoq vaqt mobaynida saqlab qoladi. Olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasiga nisbatan boyroq bo'ladi, chunonchi, uning shakllanishida tafakkurning har xil turlari ishtirok etadi. Turli kishilarda, masalan, turli davrlar, turli ijtimoiy va yosh guruhlari, turli bilim sohalari va h.k.ning vakillarida olamning konseptual manzaralari farqlanishi mumkin. Har xil tillarda so'zlashuvchi kishilar muayyan sharoitlarda bir-biriga yaqin bo'lgan olamning konseptual manzaralariga, aksincha, bir tilda so'zlashuvchi kishilar olamning turli konseptual manzaralariga ega bo'lishlari mumkin. Olamning konseptual manzarasida umuminsoniy, milliy va shaxsiy o'zaro munosabatlar bo'ladi. Olamning konseptual manzarasi bilan olamning lisoniy manzarasi bir-biridan farq qilishiga qaramay, har ikkala manzara o'zaro bog'liqdir. Agar til olamning konseptual manzarasi bilan aloqada bo'limganida, u muloqot vositasi rolini bajara olmasdi.

Xulosa. Olamning lisoniy manzarasini o'rganish masalasi inson va uning turmushi, uning dunyo bilan o'zaro munosabati, uning mavjudligining sharoitlarini aks ettiradigan, odamning konseptual manzarasi, masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Olamning lisoniy manzarasini o'rganish masalasi inson va uning turmushi, uning dunyo bilan o'zaro munosabati, uning mavjudligining sharoitlarini aks ettiradigan olamning konseptual manzarasi masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam manzarasini aks ettiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baxronova D. Olam manzaralarining kategorial xususiyatlari doir. Xorijiy filologiya. N1. Toshkent.2021.
2. Завалишина Ю.Г. Зоонимы и фитонимы в русской и английской паремиологии в аспекте этнического менталитета. Канд.Дисс. 1998.
3. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Известия АН. Серия языка и литературы. Т. 52. -1993.
4. Сепир Е. Избранные труды по языкоznанию и культурологии. -М., 1993.
5. Turdiyeva I. Olamning lisoniy manzarasi va frazeologik tasviri. Eurasian journal of academic research. 2022.
6. Xalimova M. Olam milliy lisoniy manzarasi tasvirida til va madaniyat mushtarakligi. Academic search Uzbekistan. V 2., T., 2021

